

BOLALAR DAN O'RGANGANLARIM**Djalilova Maftuna Murodjon qizi***Toshkent viloyati Qibray tumani**42-sonli davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida tarbiyachi*

Men Alloh yaratgan banda, mehribon farzand, suyukli rafiqqa, sarishta kelin, 1 qiz 1 o'g'ilning jafokash onasi hamda maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat olib borayotgan o'z ustida izlanuvchi pedagogman. Bolalar bizning dunyoyimiz. Kelajagimiz vorislari, naslimiz davomchilari, bizning ko'z-u-qoshimiz hisoblanadilar. Zero, ularsiz hayotimizni umuman tasavvur qilib bo'lmaydi. Bolalik bu inson hayotining unitilmas davri hisoblanadi. O'zimizning bolalik davrimizda sehrli va samimi quvonch hamisha hamrohimiz bo'lgan. Qay vaqt bo'lishidan qat'iy nazar bolalik davrimizga qaytgimiz kelaveradi! Shaxsan o'zim bolalik davrlarimni o'zgacha xotiralar, to'kin sochinlik, hurmat bilan yodga olaman. Va bu albatta mening ota-onamning buyuk mehnatlari natijasi. Shu o'rinda meni shu darajaga yetishimda o'zligini fido qilgan ADAJONIM, OYIJONIMga ta'zimdaman.

Har bir ota-onan farzandining tarbiyasi shu bilan birga bolalik davrining yorqin xotiralarga boy bo'lishiga MA'SUL.

Har bir boladan albatta o'rganish MUMKIN.

Bolalardan nimalarni o'rgandim?

Hayotim davomida bolalardan to'g'riso'zlik, rostgo'yilikni o'rgandim. Bolalar hech qachon yolg'on so'zlamaydilar, ular vaziyatni so'z bilan ifoda eta olmasalarda ko'z qarashlar yoki o'zlarining psixologik holatlari ichki kechinmalari o'zlarini tutishlari bilan namoyon etib qo'yadilar, buni o'zları hohlamasalarda....

Yana bolalardan mehribonlikni o'rgandim, ular atrofdagilarga shunday mehribonki tasanno deyman, misol guruhda bir do'stiga ozgina tanbeh bersam do'stini kayfiyati tushdimu uniki ham tushadi, unga yordam berishga oshiqadi, shunday vaqtlar bo'lganki Maftuna Murodjonovna hozir Jasur emas ayb menda do'stimga ogohlantirish bermeng degan....

Hozirgi to'kin zamonimizda dunyoning ba'zi davlatlarida urush tabiiy ofatlar tufayli hozirda o'z bolalik davrlarini non va suvg'a, issiq o'r'in toza kiyim boshga zor bo'lgan, amallab bir burda non bilan qorin to'yg'azib ertaga ham yetib olishini ertaga o'zi bilan onasi singlisiga bir burda non topib kelishni orzu qilib yashayotgan bolalar ham ming afsuski yo'q emas, shu bolalardan fidokorlikni shukronalikni o'rganib kelmoqdaman.

Bu bolalarni ko'rib, bolalardagi qiziqish va ko'zlaridagi ajib nurlarni ko'rib yana yashagim yana ishlagim, hayotda bolalarni o'z o'rnilarini topishga hissamni qo'shgim kelaveradi.

Yaratgan egam har bir kunimizni tinch, jonimizni omon, osmonimizni musaffoligi, bolalarimizning sog'ligi va biz kattalar ulardan o'rganishimiz uchun va to'g'ri yo'naltirishimiz uchun SHUKRONALIK bildiraman.